

**IQTISODIYOTNING TA’LIMDAGI VAZIFALARI VA  
AMALIYOTDA QO’LLANILISHI**

***Normuminov Salohiddin Sohibjonovich***

*Alfraganus University Iqtisodiyot fakulteti*

*Iqtisodiyot (sohalari va tarmoqlari) yo‘nalishi talabasi.*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada iqtisodiy savodxonlikning tarixiy-milliy va ijtimoiy asoslari tahlili, o‘quvchilarga iqtisodiy ta’lim berishning hozirgi holati, iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishning psixologik-pedagogik omillari, o‘quvchilarda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish mazmuni va komponentlari, iqtisodiy savodxonligini rivojlantirishning amaliy-didaktik vositalari, pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni, natijalari va ularning tahlili bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** iqtisodiy savodxonlik, tajriba-sinov, komponent, iqtisodiy ta’lim, amaliy-didaktik.

Uzluksiz ta’lim tizimini joriy etishning alohida xususiyatlaridan biri ta’limning mustaqil turi sifatida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining kiritilishi hisoblanadi. Bu bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat ko‘rsatadigan malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga yo‘naltirilgandir. Kasb-hunar ta’limida umumkasbiy bilim asoslarini chuqur o‘rgatish orqali o‘quvchilarni iqtisodiy faoliyatga tayyorlash va ularda amaliy malakalarni rivojlantirish kabi muhim vazifalar amalga oshiriladi.

Xalq xo‘jaligiga raqobatbardosh mutaxassislar etishtiruvchi kasb-hunar ta’limi muassasalarida tayyorlanadigan kadrlarni, ya’ni bevosita iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanadigan ijodkor kichik mutaxassis (tadbirkor, tijoratchi, texnik- arxitektor, kompyuter-dizayneri, plakatchi-rassom va ratsionalizator-ixtirochi)larni kasbiy tayyorlashda iqtisodiy ta’lim muhim o‘rin tutadi.

Zotan, zamonamizning buyuk iqtisodchilari ham talabalik yillarda maktab partasida o‘tirib, kasbiy-iqtisodiy faoliyatlarini boshlaganlar. Mamlakat iqtisodiyotidagi tub o‘zgarishlar, uning xom ashyo beruvchi yo‘nalishidan raqobatbardosh oxirgi iste’mol uchun pirovard mahsulot ishlab chiqarishga o‘tayotganligi kasb-hunar ta’limiga butunlay yangi vazifalarni qo‘ymoqdaki, ular endi malakali ishchilargina emas, balki har biri bir necha kasbni egallagan iqtisodiy savodxon xodimlarni ham etkazib berishlari kerak.

Iqtisodchi xodim ishlab chiqarish xarakteriga tez moslashuvchi mutaxassis bo‘lib, u davlat va nodavlat korxonalarida faoliyat ko‘rsatib keta olish imkoniyatiga ega bo‘lmog‘i lozim.

Iqtisodiy ta’lim - bu shaxsiylashtirilgan ta’lim muhim ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan sohadir, chunki u o‘quvchilardan tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini, matematik bilimlarni va murakkab iqtisodiy tushunchalar va nazariyalarni chuqur tushunishni talab qiladigan sohadir. Bundan tashqari, iqtisodiy ta’lim mamlakatning inson kapitalini rivojlantirish va iqtisodiy o‘sish uchun muhim ahamiyatga ega, chunki u o‘quvchilarni turli sohalarda, jumladan, moliya, hukumat va ilmiy sohalarda martaba uchun tayyorlaydi.

O‘zbekiston so‘nggi yillarda ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish borasida sezilarli yutuqlarga erishgan davlatdir. Jalon banki ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 2019-yilda boshlang‘ich ta’limga sof qabul qilish darajasi 97,8 foizni, 2020 yilda oliy ta’limga yalpi qamrab olish darajasi 36,1 foizni tashkil etgan.

Iqtisod fani ta’limining bosh maqsadi – iqtisodiy savodxonlikni oshirishdir. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, o‘quvchilarga iqtisodiyot bilan bog‘liq bo‘lgan muayyan hayotiy vaziyatlarda eng maqbul yechim topa bilish ko‘nikmalarini hosil qilish va yangi vujudga kelgan iqtisodiy shart-sharoitlar asosida yashash va faoliyat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan amaliy iqtisodiy bilim va malakalarini shakllantirish iqtisod fani o‘qituvchilari oldida turgan eng asosiy vazifalardan hisoblanadi. Bunda bizga pedagogik texnologiyalarga asoslangan noananaviy turdag'i darslar yordam beradi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan darslarining an'anaviy darslardan farqi shuki, bu darsda o‘quvchiga erkinlik muhitini yaratib berib, unga o‘z fikrini erkin bayon etishga imkon yaratib beriladi. Bunda, o‘quvchiga hech qanday tazyiq o‘tkazmasdan, savollar berish orqali uni erkin muloqotga tortish va uni shaxs sifatida hurmat qilish orqali do‘stona munosabatdagi o‘quv muhiti yaratiladi. O‘quvchini ishlatish deganda, bir necha o‘quvchiga mavzularni bo‘lib berish orqali dars o‘tish emas, balki hamma o‘quvchilarni birgalikda ishlatishni tushunamiz. O‘quvchilarni birgalikda ishlatish uchun o‘quv jarayonida interfaol metodlardan foydalanamiz. Interfaol metodlar orqali o‘quvchi kuzatadi, izlaydi, voqeа-hodisalarни sharhlaydi, qiyoslaydi, umumiylikni aniqlaydi, farqlaydi, taklif etadi, hukm chiqaradi va voqeа-hodisalarни yozma va og‘zaki shaklda ijodiy ifodalaydi.

Iqtisodiy ta’lim kasb-hunar kollejlarida ham kasbiy, ham umumta’limiy ahamiyatga ega. U ishlab chiqarish fanlari bilan birgalikda tanlangan kasb bo‘yicha amaliy faoliyat uchun zaruriy bilim, ko‘nikma va malakaning shakllanishini ta’mindan etadi. Zero, korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulotlar sifati fan, texnika va texnologiyalar taraqqiyotining hozirgi zamon bosqichi sharoitida ishlab chiqarish mehnatiga kirishgan yosh kichik mutaxassislarining iqtisodiy-kasbiy tayyorgarliga bog‘liq.

O‘quvchilarda iqtisodiy fikrlash tarzini rivojlantirish muammosini matematika vositasida tadqiq etish, nafaqat, dasturiy materialning mazmunini tanlashni, balki uni

o‘qitish metodikasining o‘ziga xos jihatlarini ochib berishni, o‘qitish shakllari, metodlari va vositalarini takomillashtirishni talab etadi.

Iqtisodiy ta’lim mazmuniga matematika elementlarini kiritish quyidagi savollarga aniq javob topishni talab etadi:

-matematika elementlari kiritilgan iqtisodiy o‘quv materiallarini nima uchun o‘rganish kerak, ya’ni o‘quv maqsadi va vazifasini aniqlash;

-nimaga o‘rgatish kerak, ya’ni ta’lim mazmunini aniqlash, o‘quv dasturini asoslash va tuzish, maxsus kurs va qo‘llanmalar ishlab chiqish;

-qanday o‘qitish kerak, ya’ni ta’lim metodlari va usulini ishlab chiqish, darslarni loyihalash;

-talabalarning bilimlarni o‘zlashtirishini nazorat qilish.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning iqtisodiy tayyorgarligini oshirish ancha dolzarb masala bo‘lib, u bozor iqtisodiyotining o‘ziga xosligi bilan belgilanadi. Har qanday kasb egasi bozor iqtisodiyoti asoslarini chuqur bilishi hamda kasbiy-iqtisodiy malakalarni yaxshi egallashi kerak. «Iqtisodiyot odami»ni yaratish va tarbiyalash, rivojlantirish kun tartibining muhim masalasiga aylanar ekan, turli hayotiy vaziyatlarda va xo‘jalik-tarmoq tizimlarida faoliyat ko‘rsatayotgan mutaxassis-kadrlarning iqtisodiy qarashlari, ularning kasb- koridan qat’iy nazar, shaxsiy-kasbiy shakllanishining sharti va asosi iqtisodiy bilim hisoblanadi. Individning insoniy va fuqarolik holati, iqtisodiy ahvoli, moddiy imkoniyati, yashash tarzi, iqtisodiy fikrlash usuli, iqtisodiy madaniyati iqtisodiy savodxonligiga bog‘liq bo‘ladi, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Музенитов Ш.А. Экономические задания на уроке. // Ж. Вечерняя средняя школа. - 1980. -№6. -Б. 44-45.
2. Новаски Т. П. Теория и практика самостоятельной работы . -М.: 1985. – 123 с.
3. Нисимчук А.С. Экономическое образование школьников. -М.: Просвещение, 1991. - 160 с.
4. Наджимов Г. Н. Народные традиции и культура. –Т.: Uzbekiston, 1992.- 119 б.
5. Нишоналиев У. Формирование личности учителя трудового обучения. Проблемы и перспективы. –Т.: Фан, 1996.- 88 б.